

**EXPRESSIVE FORMS OF ARABIC PRESS HEADLINES AND THEIR SEMANTIC INTERPRETATION IN UZBEK****Sirojiddin N. Ibrokhimov**

Research Intern

*At the Abu Rayhan Beruni Institute
of Oriental Studies of the Academy of Sciences
of the Republic of Uzbekistan*6533935@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE**Key words:** Arabic language, Uzbek language, article, title, preface, mass media, modern technology, dictionary meanings.**Abstract:** This article provides examples of article titles in the Arabic media, as well as their Uzbek translations. This article also provides the dictionary meanings of some words that will help the reader to improve his translation skills. The cited article contributes to the development of translation studies in Uzbekistan to a certain extent.**Received:** 08.05.26**Accepted:** 09.05.26**Published:** 10.05.26**ARAB MATBUOTI SARLAVHALARINING IFODA SHAKLLARI VA ULARNING O‘ZBEK TILIDAGI MAZMUNY TALQINI****Sirojiddin N. Ibrohimov**

Stajyor-tadqiqotchi

*O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi**Abu Rayhon Beruniy nomidagi**Sharqshunoslik instituti*6533935@gmail.com

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA**Kalit so‘zlar:** arab tili, o‘zbek tili, maqola, sarlavha, so‘zboshi, ommaviy axborot vositalari, zamonaviy texnologiya, lug‘aviy ma’nolar.**Annotatsiya:** Mazkur maqolada arab ommaviy axborot vositalarida maqola sarlavhalaridan namunalar keltirilgan, shuningdek ularning o‘zbek tilidagi tarjimalari ham beriladi. Ushbu maqolada o‘quvchi uchun tarjima mahoratini oshirishga yordam beradigan ba’zi so‘zlarning lug‘aviy ma’nolari ham keltirib o‘tiladi. Keltiriladigan maqola orqali O‘zbekiston tarjimashunosligi rivojiga uchun ma’lum darajada hissa qo‘shiladi.

ФОРМЫ ВЫРАЖЕНИЯ ЗАГОЛОВКОВ АРАБСКОЙ ПРЕССЫ И ИХ СМЫСЛОВАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ НА УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Сирожиддин Н. Ибрагимов

Стажёр-исследователь

Институт востоковедения имени Абу Райхана Беруни

Академии наук Республики Узбекистан

6533935@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: арабский язык, узбекский язык, статья, заголовки, предисловие, средства массовой информации, современные технологии, словарные значения.

Аннотация: В данной статье рассмотрены образцы заголовков информационных сообщений в арабских СМИ, а также проанализированы их переводы на узбекский язык. Кроме этого, в статье также проанализированы словарные значения некоторых терминов, что поможет читателю улучшить свои навыки их перевода. Представленная статья в определенной степени должна способствовать развитию науки переводоведения в Узбекистане.

Kirish. Mustaqillikka erishilgach, respublikamizda xorijiy tillarni o'rganish va tarjimashunoslik sohasiga jiddiy e'tibor qaratilib, soha rivoji yo'lida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Bu yo'nalishda olib borilayotgan ishlarning takomillashuvida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021-yil 19-mayda chiqarilgan PQ-5117-sonli "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari tog'risida"gi qarori muhim ahamiyat kasb etdi. (<https://lex.uz/docs/-5426736>).

So'nggi yillarda mamlakatimizning xalqaro maydondagi roli va obro'si tobora rivojlanib borishi natijasida arab mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy, ijtimoiy, qishloq xo'jaligi, kimyo-texnologiya, diniy-ma'rifiy va shuningdek, bir qator sohalarda amalga oshirilayotgan hamkorlik ko'lami kengayib bordi. Mamlakatimiz ko'plab arab davlatlari bilan diplomatik munosabatlar o'rnatish ustida samarali faoliyat olib bormoqda. Bu esa bugungi kun arab tilshunosligi va tarjimashunosligi tadqiqotchilari zimmasiga muhim mas'uliyat yuklaydi. Ushbu keng ko'lamli diplomatik munosabatlar arab tarjimashunosligi rivoji uchun muhim rol o'ynamoqda. Bu esa tadqiqotchilar oldida arab ommaviy axborot vositalari uslubiyatining o'ziga xosligi va uning arab-o'zbek tillari chog'ishtirma tarjimashunosligi va tilshunosligidagi talqinini o'rganishdek ustuvor vazifa kasb etmoqda. Maqolada arab ommaviy axborot vositalari maqola sarlavhalarining ifodalanishi va uning o'zbek tilidagi talqini borasida fikr yuritiladi. Shuningdek, ushbu maqola Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi 2020-yil 29-

oktabrdagi 6097-sonli Prezident farmoni ijrosini ta'minlashga muayyan darajada xizmat qiladi. (<https://lex.uz/docs/5073447>).

Ma'lumki, ommaviy axborot vositalarida matn va sarlavha uyg'unligi muhim hisoblanadi. Matnni idrok qilish bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan jarayondir. Psixologlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning 80 foizi faqat sarlavhalarga e'tibor berishadi. O'quvchi birinchi bo'lib sarlavhaga murojaat qiladi, gazeta matnining samaradorligi ko'p jihatdan uning sarlavhasi bilan belgilanadi, ma'lumki, mohirona nashr etilgan sarlavha yordamida, ya'ni aniq risola yordamida ishontirish osonroq bo'ladi. Shu sababli, jurnalist uchun, nashr uchun sarlavha tanlash juda muhimdir. Umuman olganda, bitta jumlada nafaqat maqolaning asosiy mazmunini yetkazish, balki o'quvchini jalb qilish va qiziqtirish kerak.

Shuning uchun avvalo sarlavhalar arab matbuot tizimida qanday qo'llanilishi va unga qo'yiladigan talablarning ba'zilariga to'xtalib o'tsak. Birinchidan, sarlavha maqola mavzusi va mazmuniga mos bo'lishi zarur. Ikkinchidan, sarlavha juda ham uzun bo'lmay, bir necha so'zlar bilan maqola mazmunini ochib bera olishi kerak, uchinchidan, matn uchun tanlangan sarlavhada – o'quvchi e'tiborini tortish uchun – jozibadorlik xususiyatiga ega bo'lishi kerak. Ruhshunoslarning izlanishlariga ko'ra, retsipientning qabul qilish jarayonida yuzaga keladigan o'ziga xos mexanizm mavjud. Bu mexanizm katta hajmdagi matnni uni qisqa shaklga kiritgan holda qabul qilishga yordam beradi. Bu mexanizm yordamida qisqa matnni o'zlashtirish jarayonida keng ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Bu hodisa inter va introsensor ma'no ko'chishi mavjudligi bilan bog'liq bo'lib, nutqiy faoliyat yordamida olinayotgan ma'lumotni oldindan bilishga yordam beradi. L.M.Murzin matn kompressiyasi haqida ta'kidlashicha: "Qisqartirilgan va qisqartirilmagan matn bir xil ma'noni kashf etadi."

Arab tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda ko'plab arab so'zlarining ko'p ma'noliligi (polysemy) va sifat jihatidan yaqin bo'lgan sinonimlar mavjudligi tarjimon uchun ma'lum muammolarni keltirib chiqaradi. Masalan, arab tilidagi "أعلن" fe'li – kontekstdan kelib chiqqan holda "ma'lum qildi", "e'lon qildi", "bayon etdi", "bildirdi" kabi turli ekvivalentlarga ega bo'lishi mumkin. Bunday holatlarda tarjimon kontekstual semantik tahlil asosida so'zning ma'nosini aniqlashi lozim. Siyosiy va iqtisodiy matnlarda terminologik jihatdan yangi atamalar tez-tez paydo bo'ladi. Masalan, "Asr kelishuvi" degan ibora (arab tilida "صفحة القرن") AQShning Yaqin Sharq siyosatiga doir termin sifatida paydo bo'lgan va keng ommalashgan. Bu kabi atamalarni o'zbek tilida aniq va tushunarli shaklda ifodalash tarjimon uchun alohida mas'uliyat yuklaydi. Arab tilidagi ommaviy axborot matnlarida metaforik iboralarga ham ko'p uchraladi. Masalan, "Yangi sovuq urush" (arabcha: "حرب باردة جديدة") iborasi geosiyosiy ziddiyatlarni obrazli tarzda ifodalaydi. Bu esa matn ohangini kuchaytiradi va o'quvchiga voqealarning keskinligini ta'kidlaydi.

Arab ommaviy axboroti vositalarida ham ushbu talablardan kelib chiqib sarlavha tanlanadi. Quyida ularga ba'zi misollar ko'rib chiqamiz, Saudiya Arabistonining «An-Nahar News» gazetasida «O'zbekiston Saudiya Arabistoni bilan Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish bo'yicha muzokaralarni yakunladi» sarlavhali maqola e'lon qilindi, deb xabar bermoqda «Dunyo» AA muxbiri (<https://dunyo.info/uz/mir-ob-uzbekistane/ozbekiston-va-saudiya-arabistoni...>) Ushbu xabar arab OAVda *عضوية منظمة التجارة العالمية* deb keltiriladi. Arabcha sarlavhadagi «المملكة» so'zi ko'proq saudiyalik o'quvchiga yo'naltirilgani bois, o'zbekcha tarjimasida mamlakat nomi to'liq (Saudiya Arabistoni) keltirib o'tilgan.

Saudiya Arabistonining «Al Harir.info» veb-saytida O'zbekistonda kechayotgan muhim voqealarga bag'ishlangan turkum maqolalar e'lon qilindi, deb xabar bermoqda "Dunyo" AA muxbiri (https://dunyo.info/uz/about_uzb/Saudiya-Arabistoni..). Unda quyidagicha sarlavha qo'llaniladi, «انضمام مدينة بخاري الأوزبكية إلى شبكة المدن الإبداعية لمنظمة اليونسكو» (<https://alharir.info>). Ushbu sarlavhani o'zbek matbuot manbalaridan «Dunyo» AA shunday keltiradi: «O'zbekistonning Buxoro shahri YUNESKOning ijodiy shaharlar tarmog'iga qo'shildi». Ushbu tarjimaning ba'zi o'rinlariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, *مدينة بخارى الأوزبكية* birikmasi so'zma-so'z tarjima qilinganda «o'zbekka oid Buxoro» degan ma'no anglashiladi. Lekin bizda tarjima qilinayotgan til me'yorlaridan kelib chiqqan holda uni «O'zbekistonning Buxoro shahri» ko'rinishida keltiramiz, sababi oid, tegishlilik ma'nolarini o'zbek tilida qaratqich va qaralmishli so'z birikmalari orqali ifodalashimiz mumkin.

Shu o'rinda *شبكة* so'ziga ham to'xtalib o'tadigan bo'lsak, usbu so'zning arab tilidagi asl ma'nosi: *شركة الصياد في البرّ والبحر، وأكثر ما تتخذ من الخيط المشبك* (<https://www.almaany.com/ar/dict/ar>) ya'ni qisqa qilib aytadigan bo'lsak *baliqchilikda ishlatiladigan "to'r" yoki "o'rgimchak to'ri"* ma'nolarini anglatadi, nega aynan ushbu so'z tarmoq uchun tanlangani esa uni boshqa tillarda ham shu kabi ifodalanishi bilan bog'liq. Demak, biz bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilayotganimizda til me'yorlariga va bugungi kunda so'zlar qay ma'noda iste'molda mavjudligiga alohida e'tibor qaratishimiz kerak bo'ladi.

Saudiya Arabistonining ommabop «An-Nahar news» gazetasida «O'zbekistonda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha xalqaro forum bo'lib o'tmoqda» sarlavhali maqola chop etildi, deb xabar bermoqda «Dunyo» AA muxbiri (<https://dunyo.info/uz/mir-ob-uzbekistane/%>). «An-Nahar news» gazetasi ushbu maqolani quyidagi nom bilan chop qiladi: *أوزبكستان تستضيف المنتدى الدولي لدعم المرأة*. Keltirilgan jumlada *تستضيف* so'ziga e'tiborimizni qaratamiz, ushbu so'zning lug'atdagi ma'nosi *استضاف* fe'lining hozirgi zamon shakli bo'lib, «*mehmon qilmoq*», «*mezbonlik qilmoq*» degan ma'nolarda qo'llaniladi. Shunda sarlavha tarjimasini «O'zbekiston xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash xalqaro forumiga mezbonlik qilmoqda» degan shaklda ham bersak bo'ladi, ammo sarlavha tarjimoni xalqaro forum aynan O'zbekistonda bo'layotganini mezbonlik qilmoq

so‘zi bilan emas, balki o‘zbek tilida o‘rin-payt kelishigi hisoblangan -da qo‘shimchasi bilan berishni afzal ko‘rgan. Yana bir e‘tibor tortadigan qismi bu “bo‘yicha” so‘zining qo‘llanilishi hisoblanadi, yuqoridagi so‘zga arab tili sarlavhasida qo‘llanilgan "ل" qo‘shimchasini muqobil variant sifatida keltirsak bo‘ladi, biroq bu holat ba‘zi tarjimalarda uchraydi, ba‘zilarida esa uchramasligiga ham guvoh bo‘lamiz, negaki arab tilida ko‘plab tashkilotlar nomida biz "ل" qo‘shimchasini qo‘llaniladi, ammo ularning rasmiy tarjima qilingan nomlarida alohida so‘z bilan ifodalanmay tushib qolganini ham ko‘ramiz, misol tariqasida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

1. Islom Hamkorlik Tashkilotining Islom Sammiti (Arab: القمة الإسلامية لمنظمة التعاون الإسلامي) (https://uz.wikipedia.org/wiki/Islom_hamkorlik_tashkilotining_Islom_sammiti).

2. Birlashgan millatlar tashkilotining bolalar jamg‘armasi (UNICEF) (Arab: منظمة الأمم المتحدة (للطفولة) (يونسيف))

3. Millatlar Tashkilotining ta'lim, fan va madaniyat masalalari *bo‘yicha* tashkiloti (YUNESKO) (<https://mfa.uz/uz/press/news/2022/ozbekiston-va-yunesko...>)

(Arab: منظمة الأمم المتحدة للتربية والعلم والثقافة) (<https://ar.wikipedia.org/wiki/...>)

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bugungi kunimiz zamonaviy texnologiyalar asriga aylanib ulgurdi va o‘quvchilar uchun an‘anaviy gazeta va jurnallar o‘z ahamiyatini yo‘qotib borayotganini ta’suf bilan aytamiz, ammo shu vaqtning o‘zida ommaviy axborot vositalarinig elektron ko‘rinishi keng tarqalmoqda. Shu imkoniyatdan foydalangan holda o‘quvchilarning e‘tiborini jalb qilishga, ularni OAV dan uzilib qolmasligiga alohida ahmiyat berilishi kerak. Bu kishidan turli mutaxassisliklarni talab qiladi. Sarlavha tanlash jaroyini ham kishidan alohida mahorat talab qiladigan ish ekanligini ko‘rishimiz mumkin va bu borada hozirda bu borada salmoqli ishlar olib borildi va olib borilmoqda, buning samarasini arab va o‘zbek tilida olib borilgan ko‘plab ishlar misolida ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Nabiullina, V.R. (2021). Ellipsis in the Grammatical Constructions of Arabic Newspaper Headlines // Arab Studies of Eurasia. Opushchenie v grammaticheskikh konstruktsiyakh arabskikh gazetnykh zagolovkov // Arabistika Evrazii. No. 15. pp. 86-96.

2. Nabiullina, V.R. (2023). Vocabulary of Arabic and English Newspaper Headlines During the Period of the Arab Spring Events // Arab Studies of Eurasia. Leksika arabskikh i angliiskikh gazetnykh zagolovkov perioda sobytii arabskoi vesny // Arabistika Evrazii. Vol. 6, No. 3. pp. 16–29.

3. (<https://lex.uz/docs/-5426736>)

4.

https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/horijiy_tillarni_urganish_yangi_darajaga_olib_c_hiqiladi3

5. <https://lex.uz/docs/5073447>

6. <https://dunyo.info/uz/mir-ob-uzbekistane/ozbekiston-va-saudiya-arabistoni-mamlakatimizning-zhahon-savdo-tashkil>

7. <https://www.annahar-news.com/news/single/4605>

8. https://dunyo.info/uz/about_uzb/Saudiya-Arabistoni-ommaviy-axborot-vositalari-Ozbekiston-haqida

9. <https://alharir.info>

10. <https://www.almaany.com/ar/dict/ar-ar>

11. <https://dunyo.info/uz/mir-ob-uzbekistane>

12. https://uz.wikipedia.org/wiki/Islom_hamkorlik_tashkilotining_Islom_sammiti

13. <https://mfa.uz/uz/press/news/2022/ozbekiston-va-yunesko-ortasidagi-hamkorlik-masalalari-muhokama-qilindi---32373>

14. <https://ar.wikipedia.org>